

MILLIY O'ZLIK VA OZODLIK G'OYALARI: NAHDA VA JADID ADABIYOTI QIYOSIDA

NATIONAL IDENTITY AND IDEAS OF FREEDOM: A COMPARATIVE STUDY OF NAHDA AND JADID LITERATURE

Murtazoyev Valijon

SamDChTI Yaqin sharq tillari kafedrası assistent o'qituvchisi

murtazoyevv@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Misrda shakllangan Nahda adabiyoti va Turkistondagi Jadid adabiyoti qiyosiy tahlil qilinadi. Nahda Arab dunyosida milliy uyg'onishning intellektual asosini yaratib, ma'rifat, ozodlik va ijtimoiy adolat g'oyalari ilgari surgan bo'lsa, Jadid adabiyoti Turkistonda milliy ong, istiqlool ruhi va jamiyatni jaholatdan chiqarishga qaratilgan islohotlar markazi sifatida maydonga chiqqan. Tadqiqotda qiyosiy-adabiyotshunoslik, tarixiy-sotsiologik, tematik va intertekstual tahlil metodlari qo'llanib, ikki adabiy oqimning umumiylik va farqlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Nahda, Jadid, milliy uyg'onish, ozodlik g'oyalari, qiyosiy adabiyotshunoslik, arab adabiyoti, o'zbek adabiyoti

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ литературы Нахды, сформировавшейся в Египте в конце XIX – начале XX века, и джадидской литературы Туркестана. Литература Нахды создала интеллектуальную основу национального возрождения в арабском мире, продвигая идеи просвещения, свободы и социальной справедливости. Джадидская литература, в свою очередь, стала центром реформаторских идей в Туркестане, направленных на пробуждение национального сознания, укрепление духа независимости и преодоление общественной отсталости. В исследовании применяются методы сравнительного литературоведения, историко-социологического, тематического и интертекстуального анализа, что позволяет научно выявить сходства и различия между двумя литературными течениями.

Ключевые слова: Нахда, джадидизм, национальное возрождение, идеи свободы, сравнительное литературоведение, арабская литература, узбекская литература.

Abstract: The article presents a comparative analysis of Nahda literature that emerged in Egypt at the end of the nineteenth and the beginning of the twentieth centuries, and Jadid literature that developed in Turkestan. Nahda literature laid the intellectual foundation for national awakening in the Arab world, promoting the ideals of enlightenment, freedom, and social justice. Jadid literature, in turn, became a center of reformist ideas in Turkestan, aimed at fostering national consciousness, strengthening the spirit of independence, and overcoming social backwardness. The study employs comparative literary analysis along with historical-sociological,

thematic, and intertextual methods to systematically identify the similarities and differences between the two literary movements.

Keywords: Nahda, Jadidism, national awakening, ideals of freedom, comparative literature, Arabic literature, Uzbek literature.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Misr hamda Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar milliy uygʻonish harakatlarini kuchaytirdi. Mustamlakachilik bosimi, milliy oʻzlikning yoʻqolish xavfi, jaholat va maʼrifatsizlikka qarshi kurash adabiyotda yangi oqimlarni tugʻdirgan edi. Misrda bu jarayon an-Nahda adabiyoti shaklida namoyon boʻlib, Rifaʼa at-Tahtaviy, Qosim Amin, Ahmad Shawqiy, Muhammad Husayn Haykal kabi adiblar millatni uygʻotish, ilm-maʼrifat, islohot va milliy ozodlik gʻoyalarini badiiy asarlarda ifodaladilar. Ularning faoliyati Arab dunyosida yangi adabiy shakllar – roman, dramaturgiya, modern sheʼriyat – ning shakllanishiga zamin yaratdi. Turkiston adabiy jarayonida esa jadidchilik harakati milliy uygʻonishning asosiy bosqichi boʻldi. Mahmudxoʻja Behbudiy oʻzining 'Padarkush' pyesasi bilan xalqni maʼrifat va uygʻonishga daʼvat etdi. Abdulla Qodiriy esa 'Oʻtkan kunlar' va 'Mehrobdan chayon' romanlari orqali xalqni milliy tarixiy xotira, ijtimoiy adolat va mustaqillik ruhida tarbiyaladi. Demak, Misrdagi Nahda adabiyoti va Turkistondagi Jadid adabiyoti turli hududlarda yuzaga kelgan boʻlsa-da, ularni birlashtiruvchi omil – milliy oʻzlikni tiklash va ozodlik gʻoyasini badiiy vositalar orqali targʻib qilishdir.

Adabiyotlar tahlili. Arab adabiyotshunosligida Nahda davri keng tadqiq etilgan. Rifaʼa at-Tahtaviyning 'Takhliṣ al-Ibrīz fī Talkhīṣ Bārīz' (1834) asari arab dunyosida Yevropa ilmiy-maʼrifiy merosini tanitishda poydevor boʻlgan. Qosim Aminning 'Taḥrīr al-Marʼa' (1899) kitobi esa ayol erkinligi va maʼrifat masalalarini milliy taraqqiyot bilan bogʻlagan holda jamiyatni uygʻotishga xizmat qilgan. Muhammad Husayn Haykalning 'Zaynab' (1914) romani esa arab dunyosida realistik roman janrining shakllanishiga sabab boʻlgan. Oʻzbek adabiyotshunosligida jadid adabiyoti keng oʻrganilgan. Mahmudxoʻja Behbudiyning 'Padarkush' (1913) asari jadid dramaturgiyasi va maʼrifatparvarlikning yorqin namunasidir. Abdulla Qodiriyning 'Oʻtkan kunlar' (1926) va 'Mehrobdan chayon' (1929) romanlari esa xalqning tarixiy xotirasini uygʻotishda va milliy oʻzlikni shakllantirishda muhim rol oʻynagan. Gʻarb tadqiqotchilari ham mazkur jarayonlarni keng tahlil qilganlar. Albert Hurani oʻzining mashhur 'Arabic Thought in the Liberal Age' (1983) asarida Nahdani arab milliy uygʻonishining intellektual asoslari sifatida baholaydi. Muhsin al-Musawi esa 'Arabic Literature: An Overview' (2006) kitobida Nahda va keyingi zamonaviy arab adabiyotini rivojlanish bosqichlari orqali sharhlab, uni mustamlakachilik va modernizm kontekstida oʻrganadi. Mavjud adabiyotlar Nahda va Jadid adabiyotini alohida oʻrganadi, biroq ularni qiyosiy tahlil qilish hali ham dolzarb vazifalardan biridir.

Metodologiya (Methods). Tadqiqotda bir nechta ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-adabiyotshunoslik metodi orqali Nahda va Jadid adabiyotlarida milliy uygʻonish hamda ozodlik gʻoyalari qiyoslab oʻrganildi. Shuningdek, tarixiy-sotsiologik yondashuv yordamida asarlarning yuzaga kelishiga sabab boʻlgan tarixiy voqealar va mustamlakachilik sharoiti tahlil qilindi. Tematik-

tahliliy metod asarlarda milliy o'zlik, ozodlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarining badiiy ifodasini aniqlashda qo'llandi. Intertekstual tahlil esa arab va o'zbek adabiyotidagi matnlararo hamohanglikni ko'rsatishga imkon berdi. Ushbu metodlarning uyg'un qo'llanilishi Nahda va Jadid adabiyotlarini qiyosiy asosda, ularning o'zaro umumiyliklari va farqlarini chuqurroq yoritishga sharoit yaratdi. Natijalar (Results) Nahda adabiyotida milliy uyg'onish jarayonida Tahtaviy, Qosim Amin, Shawqiy va Haykal kabi adiblarning asarlarida ilm-ma'rifat, siyosiy ozodlik va ijtimoiy adolat g'oyalari yetakchi mavzular sifatida namoyon bo'ldi. Jadid adabiyotida esa Behbudiy va Qodiriy va Cho'lpon kabi ijodkorlarning asarlarida xalqni jaholatdan qutqarish, milliy xotirani tiklash va ijtimoiy adolatni ta'minlash asosiy mafkuraviy vazifa bo'lib xizmat qildi. Har ikkala oqim ham xalqni uyg'otish, milliy o'zlikni anglash va ozodlikka undashda adabiyotni kuchli vosita sifatida ishlatganligi bilan o'xshashdir. Shu bilan birga, ularning farqlari ham yaqqol ko'zga tashlanadi: Nahda adabiyoti ko'proq Yevropa modernizmi ta'sirida shakllangan bo'lsa, Jadid adabiyoti milliy an'analar va islomiy qadriyatlarga tayangan holda rivoj topdi.

Munozara (Discussion). Natijalar shuni ko'rsatadiki, Nahda va Jadid adabiyotlari turli tarixiy-madaniy sharoitda shakllangan bo'lsa-da, umumiy maqsad – milliy uyg'onish va ozodlikka da'vat – ularni birlashtiradi. Tahtaviy va Behbudiy qarashlari uyg'unlikda bo'lsa, Qodiriy va Haykal romanlari xalq tarixini uyg'onish vositasiga aylantirgan. Farqli jihatlar esa ularning siyosiy va madaniy muhitidan kelib chiqadi: Misrda siyosiy ozodlik, Turkistonda esa ma'rifat va ta'lim masalalari ko'proq ko'tarilgan.

Xulosa va takliflar. Nahda adabiyoti arab dunyosida milliy uyg'onishning intellektual asosini yaratib, xalqni ilm-ma'rifat va ozodlik sari yetakladi. Jadid adabiyoti esa Turkistonda milliy uyg'onishning mafkuraviy markaziga aylanib, jamiyatni jaholatdan chiqarish va milliy o'zlikni tiklashga xizmat qildi. Har ikkala oqim turli sharoitda shakllangan bo'lsa-da, ularni xalqni ma'rifat, ozodlik va uyg'onishga chorlovchi g'oyalar birlashtirdi: Nahda – Yevropa modernizmi ta'sirida, Jadid esa milliy an'ana va diniy qadriyatlar asosida rivojlandi. Kelgusida bu ikki oqimni chuqurroq o'rganish, asarlarni o'zaro tarjima qilish, oliy ta'limda qiyosiy kurslarni joriy etish, arxiv manbalarni ilmiy muomalaga kiritish va O'zbekiston hamda Misr olimlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rifa'a at-Tahtaviy. Takhlis al-Ibriz fi Talkhis Bariz. Qohira: Bulaq Press, 1834.
2. Qosim Amin. Tahrir al-Mar'a. Qohira: Matba'at al-Manar, 1899.
3. Ahmad Shawqiy. al-Shawqiyyat. Qohira: Dar al-Ma'arif, 1927.
4. Muhammad Husayn Haykal. Zaynab. Qohira: Dar al-Hilal, 1914.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush. Samarqand, 1913.
6. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent, 1926;
7. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent, 1929.
8. Hourani, Albert. Arabic Thought in the Liberal Age 1798–1939. Cambridge University Press, 1983.
9. Xurramova, Zebiniso. "Jadidchilik adabiyoti va uning milliy uyg'onishdagi o'rni." Sharq filologiyasi jurnali, 2023.